ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Tolibjon ERGAShEV
f.f.b.f.d., (PhD), dotsent,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
Jizzax viloyat filiali kadrlar ma’muriyatchiligi
bo‘limi bosh inspektori

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida inson resurslarini boshqarish va davlat fuqarolik xizmati sohasida milliy, istiqbolli va salohiyatli kadrlar zaxirasini shakllantirish, kadrlar zaxirasini shakllantirishning ijtimoiy falsafiy xususiyatlari, davlat va xususiy soha korxona va tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish, rahbar imidji, kompetensiyalar, strategik rejalashtirish, yosh rahbarlar bilan ishlash imkoniyatlarinidan unumli foydalanish jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligi ijtimoiy falsafiy va ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axborotlashgan jamiyat, inson resurslari, davlat fuqarolik xizmati, milliy kadrlar zaxirasi, inson resurslari, kadrlar zaxirasi, imidj, kompetensiyalar, yosh rahbarlar, strategik rejalashtirish, salohiyatli kadrlar, falsafiy tahlil, davlat fuqarolik xizmati.

Аннотация. В статье анализируются социально-философские и научные аспекты управления человеческими ресурсами и формирования национального, перспективного и потенциального кадрового резерва в сфере государственной гражданской службы в условиях информационного общества, социально-философские особенности формирования кадрового резерва, эффективное использование управления человеческими ресурсами, имиджа лидера, компетенций, стратегического планирования, возможностей работы с молодыми лидерами в государственных и частных предприятиях и организациях, как важного фактора развития общества.

Ключевые слова: информационное общество, человеческие ресурсы, государственная гражданская служба, национальный кадровый резерв, человеческие ресурсы, кадровый резерв, имидж, компетенции, молодые лидеры, стратегическое планирование, кадровый потенциал, философский анализ, государственная гражданская служба.

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical and scientific aspects of human resource management and the formation of a national, promising and potential personnel reserve in the field of public civil service in the context of an information society, the socio-philosophical features of the formation of a personnel reserve, the effective use of human resource management, leadership image, competencies, strategic planning, and opportunities for working with young leaders in public and private enterprises and organizations, as an important factor in the development of society.

Key words: information society, human resources, state civil service, national personnel reserve, human resources, personnel reserve, image, competencies, young leaders, strategic planning, potential personnel, philosophical analysis, state civil service.

Kirish

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Axborotlashtirilgan jamiyat mamlakatning boshqaruv organlari bilan xususiy sektorning, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatlarining, yangi, yanada ishonchli o‘zaro munosabatlari asosida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan vosita sifatida axborot kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) joriy etilish g‘oyasiga asoslanadi. Bu shunday ob’ektiv jarayonki, uni barqaror rivojlanish yo‘lini tanlagan har qanday jamiyat o‘z boshidan kechiradi.

O‘zbekiston boshqa davlatlar singari global axborotlashtirilgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizning uzoq muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategik rejasi axborotlashtirilgan jamiyat sari harakat qilishga, uni shakllantirish uchun shart – sharoitlarni yaratish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Bunday strategiya O‘zbekistonni dunyo iqtisodiy hamjamiyatiga teng huquqli hamkor sifatida integratsiyalashuviga imkon yaratadi.

Bugungi axborotlashayotgan jamiyat sharoitida inson resurslarini boshqarish tobora strategik vazifaga aylanib bormoqda. Globallashuv davrida yer yuzidagi barcha davlatlarda inson va uning intellektual salohiyati, bilimi eng muhim resurs sifatida qadrlanmoqda. Bizning yurtimizda ham bu sohada aniq va maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar jarayonida yuqori malakali, mahoratli kadrlar tarkibini shakllantirish, davlat xizmatchilarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini oshirish, salohiyatiga qarab yuqori lavozimlarga ko‘tarish va buni qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlar bo‘yicha sezilarli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev raisligida 2022 yil 4 avgust kuni davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda davlat rahbari tomonidan davlat fuqarolik xizmati sohasida milliy kadrlar zaxirasini yaratish va shakllantirib borish bo‘yicha qator topshiriqlar bergan edi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar so‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlarning mantiqiy davomidir. Davlat rahbarining xalqchil siyosati sababli davlat xizmatchilari aholiga yanada yaqinroq bo‘ldi. Xalqni tinglash, budjet mablag‘larini fuqarolar talabiga binoan yo‘naltirish, yangicha “mahallabay” ishlash tizimi joriy qilindi. Davlat xodimlariga samarali faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratildi.

Davlat rahbari Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida: “Navbatdagi muhim vazifa – markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish”[1] ekanini aytgan edilar.

Davlatimiz rahbari keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, vazirliklar markaziy ijroiya idora rahbarlarning 40 foizi tuman darajasida, tuman darajasidagi rahbarlarning 60 foizi viloyat yoki respublika idoralarida faoliyat ko‘rsatmagan va bu davlat xizmatida oqsoqliklarga olib kelayotganligigi bo‘yicha tanqidiy baho berilgan edi.

Davlat rahbari tashabbusi bilan idoralarda “mahalladan – respublikagacha” tamoyili asosida kadrlarni lavozimlar pog‘onasida karera modeli asosida ko‘tarilishi tizimini joriy etish bo‘yicha lozimligi, alohida ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmonida davlat fuqarolik xizmati masalalari bo‘yicha vakolatli organning mavjud emasligi davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borishga, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти https://president.uz/uz/lists/view/5398

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o‘z vaqtida egallanishiga yo‘l qo‘yilmayotganligii ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib, milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional tayyorlangan samarali kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga eng malakali nomzodlarni saralab olish uchun xususiy bandlik agentliklarini faol jalb etish va zamonaviy autsorsing shakllaridan foydalanish, milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritishni muvofiqlashtirish buyicha mas’ul organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Agentlik davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlab olish, kasbiy bilimini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish va boshqa bir qancha yo‘nalishlar bilan shug‘ullanishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 8 avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-sonli Qonunining 4-moddasiga asosan, davlat fuqarolik xizmati - davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta’minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi. Fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– fuqarolarning fuqarolik xizmatiga kirishdagi tengligini ta’minlash;

– fuqarolik xizmatidagi lavozimlarni o‘z vaqtida to‘ldirish; – fuqarolik xizmatining yuqori malakali, mahoratli kadrlar tarkibini shakllantirishga ko‘maklashish;

– fuqarolik xizmatchilarining lavozim pog‘onalarida o‘sishiga ko‘maklashish.

Milliy kadrlar zaxirasi – bu malakali kadrlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan, davlat fuqarolik xizmatini malakali kadrlar bilan to‘ldirilishini ta’minlaydigan ma’lumotlar bazasi hisoblanadi. Zaxira “amaldagi zaxira” va “istiqbolli davlat fuqarolik xizmatchilari” dan iborat. Milliy kadrlar zaxirasi davlat sektorida rahbar kadrlar tarkibini barqaror ta’minlash, uning sifatini yaxshilash, davlat xizmatchisining kasbiy bilimini oshirish hamda xizmatda lavozimi bo‘yicha ko‘tarish maqsadida shakllantiriladi. Zaxirani shakllantirish va yuritish Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasi – bu istiqbolli davlat xizmatchilari, professional mahoratga ega nomzodlar, ishchan, va axloqiy psixologik sifatlarga ega, turli lavozimlarda o‘zini yaxshi tomonlama ko‘rsata oladigan, kerakli tayyorgarlikdan o‘tgan va navbatdagi lavozimni egallashga qodir, maxsus shakllantirilgan va belgilangan tartibda mezonlarga asoslangan guruhdir. Ya’ni, kadrlar zaxirasi - bu u yoki boshqa taklif etilgan lavozim talablariga javob beradigan, tizimli maqsadli malakaviy tayyorgarlikdan o‘tgan, tanlangan boshqaruv faoliyatini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbarlar va mutaxassislar guruhidir.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishdan asosiy maqsad bu, demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmatida tayyor bo‘lgan, tanlov, saralash, joy-joyiga qo‘yish, kadrlarni tayyorlash va lavozim bo‘yicha ko‘tarish, davlat xizmatiga mos vazifa va masalalarni samarali, professional imkoniyatlarni amalga oshirishdir.

Milliy kadrlar zaxirasiga munosib nomzodlarni saralab olish maqsadida ularning bilimi, psixologik holati va rahbarlik ko‘nikmasi baholab borilmoqda. Nomzodning salohiyatini baholash - test sinovlari, “360 daraja” o‘rganish va assessment usullarini o‘z ichiga oladi. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari bilan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

hamkorlikda zaxiraga olingan kadrlar uchun muntazam ravishda vebinarlar, amaliy mashg‘ulot va seminar-treninglar hamda rahbarlarga biriktirgan holda dublyorlik asosida stajirovkalarni tashkil etilmoqda.

Kadrlar zaxirasiga Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan respublika bo‘ylab jami 1000 nafar, jumladan, Jizzax viloyatidagi 309 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida faoliyat yuritib kelayotgan hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari hamda xotin-qizlar faollaridan 33 nafar eng salohiyatli nomzodlar tanlov asosida saralab olindi. Nomzodlarning “Shaxsiy rivojlanish rejalari”dan kelib chiqqan holda kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda oshirish va rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli malaka oshirish kurslari hamda stajirovkalar tashkil etildi. Saralab olingan nomzodlar, hududiy, tuman va shahar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida stajirovka o‘tadilar va tajribali tashkilot rahbarlarga dublyorlik asosida biriktirilishi natijasida tajriba almashish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022 yilda hududiy, shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlariga zaxira kadr sifatida tavsiya etishda munosib nomzodlarni saralab olish va tayyorlash bo‘yicha yangicha tizim – “Milliy kadrlar zaxirasi” yaratildi. Agentlikning Jizzax viloyati filiali tomonidan 2024 yilda Jizzax viloyat hokimi qaroriga asosan shakllantirilgan ishchi guruh faoliyat olib bordi, kadrlar zaxirasiga munosib nomzodlarni saralab olishda 400 nafarga yaqin nomzodlarning aqliy salohiyati, boshqaruvchilik tajribasi va mehnat faoliyati o‘rganildi, nomzodlar orasidan 80 nafar munosib nomzodlar zaxiraga kiritildi. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus elektron platforma (zaxira.argos.uz) orqali nomzodlar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan kadrlar zaxirasi tizimlari (“Milliy kadrlar zaxirasi”, “Istiqbolli kadrlar zaxirasi” va “Salohiyatli kadrlar zaxirasi”) – davlatimiz rahbari aytganlaridek, rahbarlikka tasodifan kelib qolishning oldini olish, milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda Agentlik tomonidan kadrlar zaxirasi tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy amaliyot asosida yanada takomillashtirilmoqda.

Hozirgi kunda barcha sohani rivojlantirishda va korrupsion holatlarning oldini olish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, xususan, elektron ma’lumotlarni jamlash, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, xodimlarni boshqarish jarayonida har bir tashkilot ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish, ish haqini belgilash, mukofotlar berish, rag‘batlantirish va jazo choralarini qo‘llashning o‘ziga xos tartibiga ega. Shu bilan birga, tizim samarali bo‘lishi uchun xodimlarni boshqarish kadrlar siyosatiga asoslangan bo‘lishi kerak, u ham lavozimga ko‘tarilish uchun optimal kadrlar zaxirasini yaratish dasturiga asoslanishi kerak.[2]

Zaxiradagi xodimlar to‘g‘risida qayta ishlanishi kerak bo‘lgan juda keng ma’lumotni hisobga olgan holda, zamonaviy bulutli kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ularning yordami bilan zaxiraga olinganlarning fazilatlarini baholashni qiyosiy hisoblash tartiblarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi, shu jumladan, ularni eng muhim sifatlari bo‘yicha taqqoslash munkin. Umuman olganda, dasturiy mahsulotlar yordamida ishbilarmonlik fazilatlarini ko‘p mezonli taqqoslashni

[2] T.Ergashev. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. Выпуск журнала №44, Часть-9, май-2024, С-64-70, https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13502

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

amalga oshirish va kadrlar zaxirasining zarur tarkibini shakllantirish uchun turli tashkiliy-axborot modellari, algoritmlari va dasturiy paketlarini qo‘llash mumkin bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy axborot va kompyuter vositalaridan foydalanish bilan har qanday tashkilotning barcha boshqaruv darajalaridagi xodimlarning samaradorligi ko‘psatkichlari (KPI) aniqlanadi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha yanada oqilona qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni rahbarlik sohasiga tayyorlash, boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish - murakkab sohalardan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, falsafiy va psixologik bilimlarni nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtirgan holda yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishlikni talab etadi. Bunda umumiy, texnik, iqtisodiy, omilkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lish bilan birga, rahbar barcha haqiqatlarni tushunish orqali ko‘p qirrali vaziyatlarda, sharoitlarda o‘z qiyofasini amaliy tarzda to‘g‘ri ifoda eta olishni bilishi zarur. Vaholanki, rahbar tomonidan olib boriladigan boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshishi uchun qiyofa va bilimning roli ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tish joizki, rahbar shaxsining barcha qobiliyatlarini mukammallashtirish boshqaruvda qanchalik ahamiyat kasb etsa, rahbarda qiyofani maxsus shakllantirish bilan professonal faoliyatda kamolotga erishish ham shunchalik muhim. Rahbar qiyofasi deganda, imij so‘zining ifodasi namoyon bo‘ladi. Bu boradagi turli xil ta’riflarni keltirish, ularni tahlil qilish va o‘rganish uning yanada chuqurroq mohiyatini anglab yetish hamda ushbu mazmunda teran fikr yuritishga undaydi. Davlat va xususiy sektordagi boshqaruv jarayonida rahbar imijini yaratish va shakllantirishning turli tamoyillarini tadqiq qilish “imij” fenomeni shaxs tamoyili va ta’sir ko‘rsatishga falsafiy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tahlil etilganligini e’tirof etish kerak. Ko‘plab mutaxassislar tadqiqotlar orqali qo‘lga kiritilgan natijalarga tayanib – imij - uni uzatish usulini o‘zgartirish orqali yaratiladi, deb hisoblaydilar. Zero, qandaydir ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘rinishdagi imijni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari hali XIX-XX asrlarda ishlab chiqilgan g‘oyalarga asoslangandir.[3] Jumladan, tadqiqotchi olim A.Panasyukning taklif etayotgan yondashuvida psixoanaliz usullariga asoslanganligini aytib o‘tish mumkin. U imijni qabul qilish ko‘pincha ongsiz ravishda sodir bo‘ladi, deydi. A.Panasyuk fikricha: “Odamlarning o‘zini tutishi ko‘pincha ongdagi axloq me’yorlari orqali determinatsiya qilinadi”.[4] Uning, resipient ongiga ma’lumot yetkazish tamoyili “shunday qilish kerakki ma’lumot ongga yetib borishi kerak”ligi bilan ifodalanadi. Olim ma’lumot qabul qilish mexanizmini o‘rganib chiqib, qabul qilish stereotipini faqatgina qo‘shimcha imij yaratuvchi ma’lumotlar orqali ongga ta’sir qilib o‘zgartirish mumkinligi haqidagi xulosasiga keladi. Bunda imijni yaratuvchi ma’lumot takrorlanib, tasdiqlanib, muallif fikricha “ishonchlilik testi”dan o‘tishi kerak. A.Panasyuk har xil qabul qilish oqimlaridan keladigan axborotlarni o‘zaro mos kelishiga alohida e’tibor beradi. O‘zaro mos kelmaslik ishonchsizlikni tug‘diradi. Muallif qabul qilishning konservatizm ya’ni, inson ongiga singgan ijobiylik va salbiylikni o‘zgartirish murakkablik xususiyatiga alohida urg‘u beradi. A.Panasyukning dunyo qarashicha haqiqiy “men”ning tashqi o‘zgarishlari asosida quriladi. Muallifning fikricha, “inson o‘z xarakteringizning salbiy tomonlarini ko‘rsatuvchi munosabatlar harakatini namoyon etmasdan, muloqot qilayotgan odamingizga huzur bag‘ishlaydigan xarakteringizning tomonlarini taqdim eting”, degan fikrni olg‘a suradi.

[3] Панасюк А.Ю. Вам нужен имиджмейкер? – М.: Дело, 2001. – С. 240
[4] Панасюк А.Ю. Вам нужен имиджмейкер? – М.: Дело, 2001. – С. 44.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Siyosatchi olim A.Solovevning fikricha: “Imij aniq maqsad uchun tarqatilayotgan ma’lumot va axborot oqim ustidan nazorat o‘rnatgan holda shakllantiriladi. Siyosiy jihatdan olib qaralganda, nomzodning eng muhim tomonlarini mujassamlashturuvchi xususiyatlarini tanlash va tadbiq yetish bilan bir qatorda quyidagilarni ham e’tiborga olish lozim:

a) rahbarning xalq ongida oldingi qoldirgan tasavvuri;

b) ijtimoiy kutishi ya’ni jamoa undan nimani kutayotganligi.[5]

Imij – bu tashqi qabul qilinuvchi, birlamchi tasavvurdir. Zamonaviy tamoyillarning ko‘pchiligi ta’sir qilish yo‘llaridan foydalanishning aksentualizatsiyasi asosida qurilgan. Bu yondashuvning nazariyotchilari bo‘lib, filolog va jurnalistlar hisoblanadilar. Ulardan biri – G.Pochepsovdir. Imijni informatsion yaratish tamoyili muallifining e’tirof etishicha: “Insonning imiji go‘yoki ikki yo‘nalishda shakllanadi. Bir tomondan u ommaviy kommunikatsiya oqimlari talablariga javob berishi kerak. Televideniya va ommaviy axborot vositalairga to‘g‘ri keladigan vizual axborot oqimi aksariyat holatlarda iste’mol liderlarini birinchi o‘ringa olib chiqadi. Bu yo‘nalishga – kiyinish usuli, gapirish, soch turmagi, qarash, poza, mimikalar kiradi. Bular so‘z orqali uzatilmaydigan axborotning 69 foizini beradi. Aynan ushbu ma’lumotlar ta’sirida kishilar o‘zlarining asosiy xulosalarini chiqaradi. Ma’lumki, suhbatdoshni baholash dastlabki sekunda yuz beradi. Ikkinchi yo‘nalish - bu auditoriya muhim deb hisoblaydigan: ishonch, avtoritet, professionalizm kabi xususiyatlar majmuasi. Siyosatchi olim bu borada shaxsning ichki imkoniyatiga e’tibor qaratmagan holda ideal imijning real imijga mos kelishi haqida fikr yuritadi. U imijning yaratilishi tadqiqotni yangi sohasi – “semiotika”, ya’ni “belgilar tizimi” to‘g‘risidagi fan bilan bog‘liq –deb hisoblaydi. Semiotik yondashuvni quyidagi jarayon sifatida ta’riflashimiz mumkin:

a) rahbarning induvidual sifatlarini ochish orqali, uning uslubini yaratish;

b) rahbarni munosabatlar guruhiga “intilgan”day qilib ko‘rsatish va ularni yaqinlashtirish;

v) rahbar “qiyofasi”ga kiritish;

g) rahbar munosabatlar guruhi ongida mashhur va kuchli shaxs bilan bog‘liq bo‘lishi kerak;

d) qabul qilishning barcha oqimlaridan samarali foydalanish;

e) rahbarning o‘zi boshqaradigan tuzilmasidagi belgi va narsalaridan keng hamda faol foydalanishi;

j) ommaviy kompaniya jarayonini boshqarish.[6]

Bizning fikrimizcha ommaviy axborot vositalari (OAV) va ijtimoiy tarmoqlarni “boshqarish” hamda insonlarga ijobiy ta’sir o‘tkazish uchun, ularga egalik qilish yoki moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda davlat tashkiloti yoki xususiy sektor sohasining o‘z jurnali, gazetasi, rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda sahifasi bo‘lishi lozim. Rahbar yoki rahbarlikka nomzod OAVda u yoki bu sohalarda, tahliliy va tanqidiy mavzularda, tashkilot yoki muassasani rivojlantirish istiqbollari yuzasidan tez-tez chiqishlar qilishi zarur.

Zamonaviy davlat fuqarolik xizmatchisi vatanga sadoqati, fidoyiligi, adolatliligi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, izlanuvchanligi, yangilikka intilishi, talabchanligi, iqtisodiy va huquqiy savodxonligi, ma’naviy yetukligi bilan o‘zidan oldingi rahbarlardan farqlanib turishi lozim. Rahbarlik lavozimlariga kadrlarni tanlashda ham yuqoridagi sifat va fazilatlarga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarga ishonch bildirilib, boshqarish faoliyatiga qobiliyatli, is’tedodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, ular bilan muntazam ishlash, o‘qitish va malakasini oshirish ishlariga alohida e’tibor

[5] Соловьев А.Ш. Политология. Политическая теория, политические технологии. Учебник для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 521.

[6] Почепцов Г.Г. Профессия: имиджмейкер. – 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: Алетейя, 2001. – С

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

qaratilmoqda. Davlat xizmatidagi rahbarlarning asosiy faoliyati jamiyat manfaati va davlatni mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan rejalarni amalda bajarishga qaratilgan. Shu bilan birga, rahbar o‘zi boshqarib turgan muassasasi yoki tashkiloti yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Davlat boshqaruvidagi turli xil uslublar va shakllarni farqlagan holda, biz uning xususiyatlarini va boshqaruvni samarali tashkil etish imkoniyatlarini belgilashimiz mumkin. Shu ma’noda, boshqaruvga endi kirib kelayotgan va rahbarlikda ilk qadam qo‘yayotgan yosh rahbarlar toifasini ajratish juda muhimdir. Chunki yosh rahbarlar – bu, yoshlarga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega, fikrlashi, shaxsiy fazilatlari, boshqaruv uslubi va boshqa ishchanlik jihatlari bilan ajralib turuvchi boshqaruv kadrlari guruhidir. Bundan kelib chiqadiki, yosh rahbar samarali ishlashi uchun ma’lum kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda yosh rahbar kadrlar va nomzodlarni baholashning eng istiqbolli yo‘nalishi bu-kompetensiyalarga asoslangan yondashuvdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv inson resurslarini boshqarishning integral vositasi bo‘lib, turli xil ish sohalarini iqtidorli kadrlar zaxirasi bilan birlashtirishga imkon beradi: nomzodlarni tanlash, motivatsiya va rivojlantirish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, kompetensiyalarga asoslangan yondashuv tanlash va tayinlash uchun zarur bo‘lgan barcha me’yoriy hujjatlarning amaliy funksional imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Tashkilot xodimlarini boshqarish amaliyotida kompetensiyalarga asoslangan yondashuv XX asrning 80-yillaridan boshlab faol qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv “kompetensiya” va “kompetensiyalar modeli” tushunchalariga asoslanadi, ushbu yondashuvni D.MakKlelandning xodimlarni boshqarishdagi kompetensiyalarga asoslangan yondashuvning mahsuli deb hisoblash mumkin.[7]

Kompetensiya – muayyan lavozim va umuman kompaniyaning vazifalari doirasida muvaf-faqiyatli faoliyat yuritish uchun yosh rahbar kadrlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bir qator shaxsiy xususiyatlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar va motivatsion xususiyatlar majmuidir. Kompetensiyalar ish xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi, ularni tavsiflash va o‘lchash mumkin.[8]

Kompetentlik bu – shaxsga xos kompetensiyalarni namoyish etish, shu jumladan, xodimning faoliyat predmetiga munosabatini ham anglatadi.[9]

Kompetensiyalar tarkibi 1993 yilda Spenserlar tomonidan taklif etilgan aysberglar modelidan foydalangan holda namoyish etilishi mumkin. Spenserlar kompetensiyani samarali xodimni ajratib turadigan shaxsning o‘ziga xos xususiyati deb ta’riflashgan, ya’ni “Kompetensiya – bu ishda yoki boshqa vaziyatlarda samarali va eng yaxshi natijalarga asoslangan ishlashga sabab bo‘luvchi asosiy sifatdir”.[10] Demak, kompetensiya − bu insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo‘lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo‘lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi.

Kompetensiyalarning quyidagi tarkibiy qismlari mavjud: “bilimlardan iborat qism” (yoshlikdan to institut yoki universitetni biturguncha olgan bilimlari, rahbarlik sohasidagi bilimlar, bilish va tushunish qobiliyati); “qadriyatlardan iborat qism” (shaxsning qadriyatlari va kasbiy vazifalarni bajarishga motivatsiyasi, individning qanday oilada, bunga korxona yoki muassasas qadriyatlari ham

[7] McClelland D.C. Testing for competence rather than intelligence // American Psychologist. 1973. № 2. P. 1–14.
[8] Субботин В. Что такое компетенция? // Управление персоналом. 2005. № 10. С. 34–36.
[9] Boyatzis R. The competent manager. -N.Y.: Wiley, 1982.
[10] Спенсер Л., Спенсер С. Компетенции на работе. Модели максимальной эффективности работы. -М.: Издательство ГИППО, 2010.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

kiradi); “faoliyatdan iborat qism” (bilimlarni muayyan vaziyatga nisbatan amaliy va tezkor qo‘llash imkoni).

Strategik rejalashtirish – korporativ (jamoaviy) strategiya[11], faoliyatning maqsadlarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlash, maqsadlarga erishish usullarini ishlab chiqish, tashkilot yoki muassasasning istiqbolli rivojlanishini rejalashtirish, tashkilot a’zolarining sa’y-harakatlarini umumiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirishdir. Ishni rejalashtirish vazifalarni belgilash, faoliyatni muvofiqlashtirish, samaradorlikni aniqlash, muammolarni o‘z vaqtida hal etish, imkoniyatlarni safarbar etish, shuningdek, mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Rejada vazifalarning muddatlari, ijrochilari va natijalari aniq ko‘rsatilishi kerak.

Strategik rejalashtirish tashkilotning aniq maqsadlaridan kelib chiqib strategiyalar to‘plamini ishlab chiqish, ularni vaqt va makon kontinuumida taqsimlash, tashkilotning muvaffaqiyat salohiyatini shakllantirish va ularni amalga oshirish ustidan strategik nazoratni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Boshqaruvda rahbarning shaxsiy fazilatlari katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqalarga ta’sir ko‘rsata olish siyosiy iroda, ijtimoiy intellekt, ma’naviy-axloqiy bilimlarni talab qiladi. Shu o‘rinda ulug‘ sohibqiron bobomiz, markazlashgan davlat asoschisi, taktik va strategik bilimlar sohibi Amir Temurning boshqaruvga oid fikrlarini keltirish joiz: “Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim... Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg‘arazlikni tushundim. Hammaga bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymadim... Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonlariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim”.[12]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Axborotlashgan jamiyat sharoitida davlat fuqarolik xizmatining barcha yo‘nalishlarida kadrlar zaxirasini shakllantirish va zaxiradagi nomzodlarning boshqaruv kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirib borish ishi ilmiy asoslangan tizimli yondashuvni talab yetadi. Kadrlar zaxirasi bilan ishlashda inson resurslari imkoniyatlarini e’tiborga olish, oliy ta’limda bilim berish jarayonida talabalar orasidan rahbarlikka moyilligi bor, o‘z ustida ishlaydigan yoshlar orasidan zaxiralarni shakllantirish lozim. Davlat fuqarolik xizmati sohasida faoliyat olib borayotgan davlat xizmatchilarida stressga bardoshlilik, ruhiy va aqliy bosimni yengib o‘tishda hamkasblar va jamoaning qo‘llab-quvvatlashi, sog‘lom yoshlarni davlat fuqarolik tizimiga olib kirish sohada kadrlar, ayniqsa rahbar kadrlar imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish, natijada tashkilot va muassasalarda ish samaradorligining yuqori darajasiga yerishish imkonini beradi.

Yuqoridagilarni fikr mulohazalar, tahlillar va o‘rganishlarni hisobga olib, quyidagi fikrlarni ilgari suramiz:

1.Axborotlashgan jamiyat sharoitida davlat fuqarolik xizmati sohasini yanada rivojlantirishda kadrlar zaxirasini shakllantirishning ilmiy va tizimli yondashuvi, bunda inson resurslari menejmenti, psixologik, falsafiy mushohadasi va strategik ishlash tajribasi hisobga olinib yoshlarning rahbarlikka moyilligi va ularga zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni o‘rgatish dasturlarini ishlab chiqish.

[11] Менеджмент корпорации и корпоративное управление / А.Н.Асаул, В.И.Павлов, Ф.И.Бескиерь, О.А.Мышко.-СПб.: Гуманистика, 2006.

[12] “Темур тузуклари”. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент, 1991,64-б.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

2. Davlat fuqarolik xizmati sohasida mehnat qilayotgan yosh, iqtidorli, intellektual bilimlarga ega davlat xizmatchilari orasidan davlat va jamiyatga sadoqatli insonlarni tanlab olish axborot tizimlarini yaratish.

3. Davlat fuqarolik xizmati, xususiy sohalar va Oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasidan rahbarlikka moyil yoshlarni topish va ularga professional tayyorgarlik berish zarur. Bu, o'z navbatida, kelajakda davlat fuqarolik xizmatida o'zini ko'rsata oladigan yuqori malakali kadrlarning vujudga kelishiga olib keladi.

4. Davlat xizmatchilariga aholi bilan ishlash jarayonida stressga bardoshlilik va ruhiy-aqliy bosimni yengish qobiliyatini shakllantirish usullarini tadbiq qilish.

5. Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish uchun oliy ta'limning amaliy ish bilan integratsiyalashuvi muhimdir. Ta'lim jarayonida talabalarga haqiqiy ish sharoiti va muhitida faoliyat olib borish imkonini bergan holda, ularni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash zarur. Bu yoshlarning davlat xizmatlariga bo'lgan qiziqishini orttiradi va ularning malakasini oshirishga olib keladi.

6. Davlat fuqarolik xizmatining samarali faoliyati uchun rahbar, hamkasblar va jamoaning qo'llab-quvvatlashi va bir-birini tushunishi, o'zaro hamjihatlik ruhini shakllantirish juda muhim bo'lib, bu kelajakda shu sohaning rivojlanishiga vamuvaffaqiyatni ta'minlashga yordam beradi.

7. Davlat fuqarolik xizmatida ish samaradorligini oshirish uchun, rahbarlar va kadrlar uchun innovatsion menejment usullari, tahlil va strategik qarorlar qabul qilishdagi ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Bu ularning ish samaradorligi va jamoa faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

8. Milliy, istiqbolli va salohiyatli kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar nafaqat kasbiy malakalar, balki shaxsiy rivojlanishga ham katta e'tibor qaratishlari kerak. Shaxsiy rivojlanish, taraqqiyot, etika va jamoaviy ishlashning o'zaro bog'lanishi davlat xizmatining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti https://president.uz/uz/lists/view/5398
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni https://lex.uz/uz/docs/6145972
3. T. T.Ergashev. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала №44, Часть-9, май-2024, С-64-70, https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/13502
4. Панасюк А.Ю. Вам нужен имиджмейкер? - М.: Дело, 2001. - С. 44.
5. Соловьев А.Ш. Политология. Политическая теория, политические технологии. Учебник для студентов вузов. - М.: Аспект Пресс, 2000. - С. 521.
6. Почепцов Г.Г. Профессия: имиджмейкер. - 2-е изд., испр. и доп. - СПб.:Алетейя, 2001. – С
7. McClelland D.C. Testing for competence rather than intelligence // American Psychologist. 1973. № 2. P. 1–14.
8. Субботин В. Что такое компетенция? // Управление персоналом. 2005. № 10. С. 34–36.
9. Boyatzis R. The competent manager. -N.Y. Wiley, 1982.
10. Спенсер Л., Спенсер С. Компетенции на работе. Модели максимальной эффективности работы. -М.: Издательство ГИППО, 2010.
11. Менеджмент корпорации и корпоративное управление/А.Н.Асаул, В.И.Павлов, Ф.И.Бескиерь, О.А.Мышко.-СПб.:Гуманистика, 2006.
12. Темур тузуклари. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент, 1991, 64-б.